O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 24 - yanvar 20-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 27 dekabrdagi “Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi 651-son qarori ijrosi to‘g‘risida” 639-10-0-Q/23-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi “Gaz transporti tizimi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 651-son qarori hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 27-dekabrdagi** 639-10-0-Q/23-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6; 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 27-dekabrdagi “Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi 651-son qarori ijrosi to‘g‘risida”** 639-10-0-Q/23-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekistan Respublikasining “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq:

xavfli ishlab chiqarish obyektlari jumlasiga 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalaniladigan obyektlar kirishi;

sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi;

b) O‘zbekistan Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq:
sanoat maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar jumlasiga sanoat korxonalariga, shu jumladan, kon sanoati, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar qurish uchun berilgan yerlar kirishi;

transport maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar jumlasiga, shu jumladan, energetika

tizimlarining muhandislik obyektlari va tarmoqlari, magistral quvurlar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari joylashgan yerlar kirishi;

gaz transporti tizimi obyektlarini muhofaza qilish qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

gaz transporti tizimi obyektlari joylashgan hududlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qoidalarga qat'iy rioya etilishi majburiy hisoblanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Toshkent tuman gazta'minot" GTF F.Mirzaxamedov

oy muddatda gaz transporti tizimi obyektlarining muhofaza hududlari mazkur qaror bilan tasdiqlangan qoidalarga muvofiqligini xatlovdan o'tkazsin hamda aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralarini ko'rsin.

4. Tuman hokimining Matbuot bo'yicha maslahatchisi D.Ismailova mazkur qaror mazmun mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

5. Tegishli bo'lim va tashkilotlar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosari S.Mirsagatov hamda Toshkent tuman gazta'minot GTF rahbari F.Mirzaxamedov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**